

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 272 (1061), 2023-yil 30-dekabr, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



ISLOHOT ODIMLARI



OLTI MUHIM LOYIHA

yoxud O‘zbekistonning “yashil” energiyaga o‘tish tashabbuslarining amaliy ifodasi

Kuni kecha O‘zbekistonda nafaqat energetika sohasi, balki iqtisodiyotimiz, xalqimizning buguni va kelajagi uchun muhim voqea ro‘y berdi: mamlakatimizning olti hududida 5 ta quyosh, 1 ta shamol elektr stansiyalari ishga tushirilib, tarmoqqa ulandi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tantanali marosimdagi nutqida Prezidentimiz "...Bugun mamlakatimiz tarixida yana bir yorqin sahifa ochadigan muhim hodisa — umumiy quvvati ikki ming to‘rt yuz megavatt bo‘lgan oltita yirik quyosh hamda shamol stansiyalari tarmoqqa ulanmoqda. Jumladan, O‘zbekistonning yaqin do‘sti va keng qamrovli hamkori bo‘lgan Birlashgan Arab Amirliklarining "Masdar" kompaniyasi tomonidan Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida uchta quyosh elektr stansiyasining birinchi bosqichi barpo etildi. Bundan tashqari,

ushbu nufuzli kompaniya tomonidan Tomdi tumanida barpo etilayotgan zamonaviy shamol stansiyasining 100 megavatt ishga tushirilmoqda. "Gezhouba" kompaniyasi bilan esa Buxoro va Qashqadaryo viloyatlaridagi quyosh stansiyalarining dastlabki 400 megavattli generatsiyasi boshlanadi. Eng e‘tibori jihat — ushbu barcha loyihalar davlat-xususiy sheriklik asosida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirildi", deya ta'kidladi.

[Davomi 3-betda](#)



DOLZARB MAVZU



VATANPARVARLIK HISSI HAR BIRIMIZDAN METIN IRODA, MISLSIZ QUDRAT VA SHIJOAT TALAB ETADI

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining shu yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishida ishtirok etar ekanman, o‘zini shu yurt fuqarosiman degan har bir shaxs bugun o‘zgarib borayotgan dunyo mafkuraviy manzarasining faqatgina tomoshabin yoki kuzatuvchisi emas, aksincha, mana shu belgilanayotgan islohotlarning ishtirokchi kuchiga aylanmog‘i lozimligi, bu zamonning zarur shartlaridan biri ekanini angladim.

[Davomi 5-betda](#)



E‘TIROF

“TURKIY ADABIYOT DURDONALARI” TAQDIMOTI

Adabiyot — dillarni dillarga, ellarni ellarga bog‘laydigan qudratli rishtadir. Mamlakatlar o‘rtasidagi tinchlik-totuvlik, do‘stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlashda so‘z san‘atining o‘rni va ahamiyati beqiyos.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Boku shahrida o‘tkazilgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining navbatdagi sammitida Tashkilotga a‘zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalardan iborat "Turkiy

adabiyot durdonalari" 100 jildlik kitoblar majmuasini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish tashabbusini ilgari surgan edi.

[Davomi 2-betda](#)

QISHLOQ XO‘JALIGI

ERKIN BOZOR IQTISODIYOTI SARI YANA BIR QADAM

Agrar tarmoqda manfaatdorlik oshirilayotgani yangi marralarga zamin yaratadi

"Gap bilganga bir tanga, ish bilganga ming tanga". Yo‘q, aksincha, donishmand xalqimizning bu iborasini gap bilganning tangasi ish bilgannikidan ming marta ko‘p bo‘lishi kerak, deb inkor qilishga shoshilmang. Negaki, barcha soha va tarmoqlarga jadal kirib kelayotgan bozor iqtisodiyoti sabab bu ibora mazmuni tamoman o‘zgardi: endi ish bilganning, ishbilarmonning, tadbirkorlarning zamoni keldi. Bunda gapning qadri tushishi emas, ishning qimmatini ming chandon ortishi hisobiga mana shunday mazmun shakllangani e‘tiborga molik.



Darhaqiqat, O‘zbekiston uzoq yillik agrar tarmoqqa ixtisoslashish turg‘unligidan sanoati jadal rivojlanayotgan davlatlar qatoriga o‘tdi. Yuqoridagi ibora ta‘biri bilan aytganda, bugun yurtimizda qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar yaratish borasidagi amaliy sa‘y-harakatlar samarasida avval o‘n million so‘mga sotilgan xomashyodan keladigan daromad endi yuz million so‘m bo‘ldi.

[Davomi 4-betda](#)

MUNOSABAT

MA‘NAVIY YUKSALISH ZARURATI

Davlatimiz rahbarining joriy yil 16-17-noyabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi ko‘plab sohalarni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, ma‘naviyat sektorini tashkil etish bo‘yicha Surxondaryo tajribasini yaratish vazifasi berilgani ezgu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining yaqinda o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishida ma'naviyat sektorini tashkil etish, uning maqsad va vazifalari, dolzarbligi keng muhokama qilindi. Ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, san'at va ijod sohalaridagi islohotlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalar belgilangan yig'ilishning asosiy mazmuni sohaga doir barcha muammolar yechimiga qaratildi. Xususan, mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G'arb ilm-fani yutuqlari bilan birga,

milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv va havodex zarurligi ta'kidlandi.

Mamlakatimiz aholisining katta qismi yoshlardan iborat. Ularning bugungi ma'naviy-ruhiy tayyorgarligi yurtimiz kelajagini belgilaydi. Shu sababli tez o'zgarayotgan zamon, tahlikali dunyo sharoitida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usini yuksaltirish, media-olamdagi axborotlarni saralash ko'nikmasini shakllantirish kabilar kechiktirib bo'lmas vazifalardir.

[Davomi 5-betda](#)



O‘ZBEKISTON TASHABBUSLARI — AMALDA

KORRUPSIYAGA QARSHI STRATEGIK MAQSADLAR

jamiyat rivojiga g‘ov bo‘layotgan illatning ildiziga bolta uradi

Zamonaviy dunyo texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib qoldi. Bu jarayon hayotimizni yangillashtirish barobarida insoniy qadriyatlarini ham o‘zgartirib yubormoqda. Insoniyat misli ko‘rilmagan texnologik taraqqiyot qarshisida turibdi. Mazkur o‘zgarishlar jamiyat, davlat boshqaruvi, siyosiy qarashlar va diplomatik munosabatlarga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda.

Ayni paytda xalqaro hamjamiyatni doim tashvishga solib kelgan, taraqqiyotga raxna bo‘layotgan illatlar hamon biz bilan yashamoqda. Zamonaviy texnologiyalar hayotimizga kirib kelishi va barcha sohadagi munosabatlarda inson omili kamayishi ham kishilik jamiyati nafi bilan bog‘liq muammolar oldida ojiz qolmoqda.

Ulardan biri — korruptsiya. Odam avlodlarida ong shakllanishi va hayot uchun kurash zarurati paydo bo‘lgan davrlardan ildiz ota boshlagan bu illat ko‘p o‘tmay taraqqiyotning haqiqiy kushandasiga aylandi.

[Davomi 2-betda](#)

E'TIROF

"TURKIY ADABIYOT DURDONALARI" TAQDIMOTI

Boshlanishi 1-betda

Ushbu tashabbus asosida qisqa vaqt ichida birinchi bo'lib O'zbekistonda mazkur muhtasham adabiy to'plam yaratilib, o'zbek tilida chop etildi.

To'plam o'tgan yilning noyabr oyida Samarqandda bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkiloti rahbarlari sammitida ilk bor qardosh mamlakatlarimiz yetakchilariga taqdim qilingan va ularning ijobiy e'tirofiga sazovor bo'lgan edi.

Yangi yil arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Turkiya Prezidentining Xalq kutubxonasi hamda xalqaro TURKSOY tashkiloti hamkorligida Anqara va Istanbul shaharlarida "Turkiy adabiyot durdonalari" 100 jildlik majmuasining taqdimot marosimi bo'lib o'tdi.

Anqara shahridagi nufuzli kutubxonada o'tkazilgan tadbirda Turkiyaning siyosat va madaniyat arboblari, parlament a'zolari, akademik doiralari vakillari, TURKSOY tashkiloti rahbariyati, mamlakatimizning Turkiyadagi elchixonasi xodimlari, taniqli shoir va yozuvchilar, jurnalistlar, adabiyot muxlisarlari ishtirok etdi.

Ta'kidlash joizki, ushbu majmuadan umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari hamda Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo bo'lgan O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, shuningdek, kuzatuvchi mamlakatlar — Turkmaniston va Vengriya davlatlaridan jami 450 dan ziyod atoqli shoir, adib va mutafakkirlarning barkamol asarlari o'rindi. Ushbu taqdimot marosimida so'zga chiqqan TURKSOY Bosh kotibi Sulton Rayev, Turkiya Buyuk Millat Majlisi deputati, Turkiya — O'zbekiston parlamentlararo do'stlik guruhining raisi Usmon Mesten, Anqaradagi Hoji Bayram universiteti rektori, professor Mehmet Nasi Bostanji, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Xayriddin Sultonov, Xalq kutubxonasi mudiri Ayhan Tug'lu va boshqalar ushbu adabiy majmua turkiy tili davlatlar tarixida ilk bor ro'yobga chiqarilgan yirik adabiy loyiha sifatida qardosh xalqlarimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

Kitoblarda barcha turkiy tili xalqlar adabiyoti vakillariga keng o'rindi berilgan. Xususan, "Umumturkiy adabiyot namunalari" deb nomlangan dastlabki 5 jildidan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk",



Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" va Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oni-yning "Hikmatlar"i hamda Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" kabi mumtoz asarlar o'rindi olgan.

"O'zbek adabiyoti namunalari" Hazrat Mir Alisher Navoiyning "Saylanma g'azalari" bilan boshlanib, qoraqalpog' adabiyoti namunalari ham o'z ichiga oladi.

Taqdimot marosimida so'zga chiqqan TURKSOY Bosh kotibi Sulton Rayev, Turkiya Buyuk Millat Majlisi deputati, Turkiya — O'zbekiston parlamentlararo do'stlik guruhining raisi Usmon Mesten, Anqaradagi Hoji Bayram universiteti rektori, professor Mehmet Nasi Bostanji, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Xayriddin Sultonov, Xalq kutubxonasi mudiri Ayhan Tug'lu va boshqalar ushbu adabiy majmua turkiy tili davlatlar tarixida ilk bor ro'yobga chiqarilgan yirik adabiy loyiha sifatida qardosh xalqlarimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

Ma'lumki, Turkiy davlatlar tashkilotining Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofoti sovrindori, atoqli qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning 95 yillik tavallud ayyomi yaqinda barcha turkiy xalqlar tomonidan keng nishonlandi. Shu munosabat bilan O'zbekistonda ham ko'plab tadbirlar o'tkazildi. Jumladan, adibning 10 jildlik asarlari o'zbek tilida nashr etildi.

Uchrashuvda O'zbekiston delegatsiyasi tomonidan Chingiz Aytmatovning mazkur 10 jildlik asarlar to'plami ham Xalq kutubxonasiga sovg'a sifatida topshirildi.

Ma'lumki, yangi O'zbekistonning xalqaro maydonda olib borayotgan ochiqlik siyosati jamiyatda ijtimoiy faol tuzilmalarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Xususan, "O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida" xalqaro multimedia loyihasi ham bu boradagi islohotlarning amaliy natijalaridan biri bo'ldi.

O'z navbatida, mazkur loyiha asosida 2017-yilda O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyati (WOSCU) tashkiloti etilb, 2018-yildan faoliyatini boshladi.

Ayni vaqtda qadar ushbu jamiyat tomonidan "O'zbekiston madaniy merosi" turkumida 50 jild kitob nashr etildi. Bu ishga Ozarbayjon, Turkiya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Germaniya, Italiya, Rossiya, Polsha, Fransiya, Chexiya, AQSH, Yaponiya kabi 40 dan ziyod mamlakatlarning 400 dan ortiq sharqshunos olimlari, san'atshunos va arxeologlar, muzey mutasaddilari jalb qilingani e'tibordir.

O'zbekiston delegatsiyasi tomonidan Xalq kutubxonasi hamda Turkiy davlatlar tashkilotiga ana shu nodir kitoblar majmuasi ham tuhfa etildi.

"Turkiy adabiyot durdonalari" 100 jildlik majmuasining taqdimot marosimi, shuningdek, Istanbul shahrida joylashgan Turkiy davlatlar tashkilotining Kotibiyati qarorgohida ham bo'lib o'tdi.

Tadbirda Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning turkiy birlikni mustahkamlash, turkiy xalqlar tarixi va madaniy merosini asrab-avaylashga qaratilgan tashabbuslari muhim ahamiyatga ega ekanini alohida qayd etdi.

Bosh kotib "Turkiy adabiyot durdonalari" 100 jildlik majmuasini yuksak baholab, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi asosida tayyorlangan ushbu muhtasham adabiy to'plamni boshqa a'zo davlatlar tillariga tarjima qilish bo'yicha Kotibiyat barcha imkoniyatlarini ishga solishini ta'kidlab o'tdi.

Taqdimot marosimlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Xayriddin Sultonov ishtirok etdi va nutq so'zladi.

J.ESHONQULOV

O'ZBEKISTON TASHABBUSLARI — AMALDA

KORRUPSIYAGA QARSHI STRATEGIK MAQSADLAR

jamiyat rivojiga g'ov bo'layotgan illatning ildiziga bolta uradi



Maryam ABDUKURIMOVA, iqtisodiyot fanlari nomzodi

Boshlanishi 1-betda

Bugun rivojlanish istagida bo'lgan har bir davlat korruptsiyaga qarshi kurashmoqda. Lekin bu yo'l shunchalar og'irki, jamiyatni korruptsiya qusuridan tozalash imkonsizdek tuyulaveradi. Shunga qarabmasdan, inson tug'ilishi bilan paydo bo'ladigan tabiiy huquqlaridan to'laqonli foydalanishi, munosib hayot kechirishi uchun qayg'uradigan davlat borki, korruptsiyaga barham berish yo'lini tanlaydi.

Shu o'rinda Singapurning bu borada erishgan muvaffaqiyatlari haqida ikki og'iz aytib o'tsak. Bu XX asr ikkinchi yarmining mashhur siyosiy arbobi, 35 yoshida Singapur bosh vaziri lavozimini egallagan Li Kuan Yuning siyosiy irodasi bilan bog'liq. U Singapurni korruptsiya botqog'idan chiqarish yo'lida ayovsiz kurash olib boradi. Bu maqsadi yo'lida korruptsiyaga aralashgan eng yaqin qarindoshlari, do'stlari va maslakdoshlariga ham rahm qilmagan.

Natijada jamoatchilik fikri hukumatdagi korruptsiyaga jamiyatga tahdid sifatida qaralishiga erishildi. Mamlakatda qonunchilik bazasi yangilandi va pora tushunchasining izohi kengaydi. Mazkur tushuncha muayyan qiymatga ega bo'lgan istalgan foydani o'z ichiga oladigan bo'ldi. Qonunga kiritilgan o'zgarishlar tergovchilarga

islohotlarga, eng achinarlisi, yangilanish muhitiga ishonchsizlik kayfiyati paydo bo'ladi. Bu o'z-o'zidan fidoyi, vatanparvar va bilimli kadrlar salohiyatini, ularning orzu-istaklarini, taraqqiyotga intilishlarini yo'qqa chiqaradi. Pirovardida o'zi bo'larchilik, sansoralik harakatlari boshlanadi. Shu tariqa taraqqiyot bir joyda deysinib turaveradi.

Bu kabi salbiy holatlarga barham berish maqsadida korruptsiyaga qarshi murosasiz kurash e'lon qilingani bugun o'z samarasini bermog'da. Ayniqsa, davlat xizmati shaffofligini ta'minlash yo'lidagi chora-tadbirlar e'tiborga molik.

Mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurash davlat xizmatlarini soddalashtirish, xususan, raqamlashtirish bilan boshlangani ham samarador tizim sifatida baholanmog'da. Byurokratiyani kamaytirish, hukumat faoliyatining ochiq va oshkoraligini ta'minlash, davlat xaridlarini to'liq raqamlashtirish borasidagi ishlar ham e'tiborga loyiq, albatta.

Keyingi yillarda barcha davlat idoralari kompleks va samaradorlikni baholash reyting tizimlari yo'lga qo'yildi. Bu korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizm amaliyoti bo'lib, u orqali har bir davlat idorasi o'z faoliyatiga baho berish asosida xodimlar ishi umumdorligi va xulq-atvorini ham nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiyani ishlab chiqib, hayotga tatbiq etish, davlat idoralari faoliyatining yanada shaffofligini ta'minlash va hisobdorligini oshirish, ochiq ma'lumotlar tizimini takomillashtirish, sohaning huquqlari asoslari va institutsional mexanizmlarini mustahkamlashga alohida urg'u berish zarurligini ta'kidladi.

Bu maqsad zamirida ham katta hayotiy haqiqatlar borligini anglab yetishimiz kerak. Albatta, jamiyatni biror-bir illatdan tozalash oson ish emas. Bu bir kunda, bir yilda ham bo'lib qolmaydi. Buning uchun konseptual sa'y-harakatlar zarur bo'ladi. Shu ma'noda, korruptsiyaga qarshi kurashda strategik maqsadlar bilan maydonga chiqish ayni muddadidir. Boisi, milliy strategiyada ko'zlangan maqsadlar

Mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurash davlat xizmatlarini soddalashtirish, xususan, raqamlashtirish bilan boshlangani ham samarador tizim sifatida baholanmog'da. Byurokratiyani kamaytirish, hukumat faoliyatining ochiq va oshkoraligini ta'minlash, davlat xaridlarini to'liq raqamlashtirish borasidagi ishlar ham e'tiborga loyiq, albatta.

keng imkoniyatlar, jumladan, gumonlanuvchilar, ularning rafiqasi, farzandlari va agentlarning bank hisoblari, bank hujjatlarini tekshirish, surishtirish, xatlash kabilarni taqdim etdi. Pora olgan shaxs, aslida, kerakli xizmatni ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lganini isbotlash zarurati yo'qoldi. Soliq inspektorlari har qanday axborotni ketma-ket taqdim etishga majbur edi. Shu tariqa Singapur rivojlangan davlatlar safidan o'rindi.

Bugun O'zbekistonda ham korruptsiyaga qarshi murosasiz kurash boshlangan va islohotlarimizning bosh maqsadi odamlarga munosib turmush sharoiti yaratishga qaratilgan. Mamlakatimizning bu borada qo'lga kiritgan yutuqlari yaqinda Toshkentda bo'lib o'tgan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro mukofotni tantanali topshirish marosimida alohida e'tirof etildi.

Marosimda nutq so'zlagan Prezidentimiz korruptsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchi ekanini ta'kidladi. Jumladan, "Tahillarga ko'ra, hozirda korruptsiyaning dunyo miqyosidagi zarari 3 trillion AQSH dollariga yaqin miqdorni tashkil qilmoqda. Ammo men bu katta raqamlar haqiqiy holatni va korruptsiya natijasida ko'rilayotgan real zararning aniq hajmini to'liq ifoda eta olmaydi, deb hisoblayman. Eng yomoni — jamiyat ko'radigan ma'naviy zarar ko'lamini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi", dedi.

Darhaqiqat, shunday. Korruptsiya ta'sirida insonlar, ayniqsa, yosh avlod o'y-xayolida, ongida davlat va jamiyatga,

barchamizni aniq harakat va maqsadlar sari chorlab turadi, himmamizga mas'uliyat yuklaydi, ta'bir joiz bo'lsa, vijdonimizga ogohlantirish berib turadi.

Davlat idoralari faoliyatining yanada shaffofligini ta'minlash va hisobdorligini oshirish, ochiq ma'lumotlar tizimini takomillashtirish ham bugungi kun talabi bo'lib qolmoqda. Nega shunday? Chunki davlat idoralari shaffofligi faoliyatimiz va sa'y-harakatlarimiz ko'zgidir. Hisobdorlik esa mas'uliyat va burch, halollik, degani. Xalq oldidagi, davlat oldidagi mas'uliyat va halollik.

Korruptsiyaga qarshi kurashishda jurnalistlarning ham muhim o'rni bor. Ayniqsa, yangi O'zbekistonda matbuot va so'z erkinligiga alohida e'tibor qaratilayotgan, tanqid-yohilliy chiqishlarga o'z vaqtda tekzor munosabat so'ralayotgan bir sharoitda jurnalistlarimiz faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon qilayotgani e'tiborga molik. Tahillarga ko'ra, jurnalistlarimiz oldida ham, o'zini jamiyatga daxldor deb hisoblaydigan oddiy fuqarolarimiz, barcha davlat xizmatchilari oldida ham hali bu borada katta vazifalar turibdi.

Bu illatga qarshi kurashish faqat qonunlar kuchi yoki birgina davlat rahbari, hukumat ishi bo'lishi kerak emas, unga qarshi jamoaviy kurashni avj oldirish zarur. Eng muhimi, bu kurashda bir yoqlamalik yoki qandaydir shaxsiy manfaatlar emas, balki mamlakat ravnaqi, umummilliy taraqqiyot va xalqimiz manfaatini ko'zlab harakat qilmoq kerak. Shundaykorruptsiyasiz jamiyatga hamda davlat xizmatini shaffof rivojlantirishga erishish mumkin bo'ladi.

MULOHAZA

ILMDAN O'ZGA NAJOT YO'Q

Tahlillar ko'rsatmoqdaki, taraqqiy etgan davlatlar rivojlanmagan yo rivojlanayotgan mamlakatlarda mutlaqo yoki yetarli ahamiyat berilmayotgan ijtimoiy-gumanitar va teologik fanlar taraqqiyotiga ulkan sarmoya kiritib, qattiq qo'llab-quvvatlaydi. Bunday davlatlar siyosiy, sotsiologik, teologik, psixologik, axborot yo'nalishi sohalaridagi turli-tuman eksperimentlarga ham jiddiy yondashadi.



Habibulla SADIBAQOSEV, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

Axborotni maqsadli tarqatish, bir yoqlama talqin etish, o'z foydasiga boshqarish, jamoatchilik fikrini o'zi istagan maqsad yo'lida shakllantirish borasida taraqqiy etgan davlatlarning yaqqol ustunligi seziladi.

Afsuski, bu ustunlik mutazam bo'lmasa-da, vaqti-vaqti bilan puxta niqoblangan istilochilik harakatlariga ham xizmat qilmoqda. So'nggi o'ttiz yil mobaynida dunyoda sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy voqeikdan xabardor kishi bu so'zga isbot talab qilmaydi. Nega-ki, yadroviy, kimyoviy, biologik turdagi ommaviy qirg'in qurollarini qo'llashi ehtimoli yuqori, inson huquqlarini chidab bo'lmas darajada toptayapti deb hisoblangan, so'z erkinligi, demokratik tamoyillar oyoqosti qilinayotgani, irqiy ayirmachilik yoki millatchilikning o'ta radikal ko'rinishlari kuzatilayotgani haqidagi da'volar bilan vayron etilgan, millionlab kishilari qochqiniga aylantirilgan davlatlar taqdirining o'zi bunga misoldir.

Sog'lom fikri har bir kishi bilishi va aslo unutmasligi lozim bo'lgan achchiq bir haqiqat bor: bugun aksariyat yurtlarda bevosita faoliyat yuritayotgan diniy da'vatchilar, onlayn voizlar, xalifalik yaratishga chaqirayotgan "din peshvolari", bir millatni butun boshli mamlakatning hududiy yaxlitligini buzib bo'lsa-da, alohida ajrab chiqishga undayotgan soxta millatparvarlarning asl maqsadi tajovuzkorlik, istilochilik, talonchilikdan boshqa narsa emas.

Mana shu haqiqatni anglagan kishi esa o'z vatani va xalqi uchun bugun ilmdan o'zga najot yo'qligini ham e'tirof etadi. Aslida, ilm bashariyat uchun hamisha najot manbai bo'lgan. Shu bois, o'zbek xalqining ulug' allomalari, jahon tarixida yorqin iz qoldirgan mutafakkir olimlar, dunyodagi barcha dinlar ilimga da'vat etadi.

Bugun yurimimizda ilm-fan rivojiga alohida e'tibor qaratilayotgani, buning uchun katta resurslar safarbar etilayotgani sababi ham shunda. Bu sa'y-harakatlar yangi O'zbekiston fenomeni o'laroq tarixga muhrlanmog'da. Zero, najot qutbi, shubhasiz, ilm!



O'tgan asrdan boshlab siyosiy-mafkuraviy mavzulardagi ma'ruza va tahlillarda "sotsialistik va kapitalistik qutblar" atamasini qo'llash urfga kirgan. Bu atamalar siyosat, jamiyatshunoslik, falsafa, mafkura, ma'naviyat va tarix ilmda hamon qo'llanilmoqda. Ammo bugungi dunyoning siyosiy-mafkuraviy, diniy-aqidaviy manzarasini tahlil qilib aytish mumkinki, insoniyat hozir sotsialistik yoki kapitalistik qutblar emas, balki jaholat va ma'rifat qutbi atrofida jamlanmog'da.

Yangi O'zbekiston, shubhasiz, ilmu ma'rifat qutbini tanladi. Bu tanlov mamlakatning har bir kishisi, ayniqsa,

yoshlari oldiga ulkan vazifa va mas'uliyat qo'yadi. O'zini shu yurt a'zosi deb hisoblagan har bir vatandoshimizning burchi tanlangan bu qutbning fidoyisi bo'lish, shu tariqa davlatimiz barqarorligi, mustaqilligi va kelajagini mustahkamlashdir.

Mamlakatning ziyoli qatlami, o'qituvchi va murabbiylari, mafkurachi va targ'ibotchilari, umuman, har bir kishi buni hayot haqiqati sifatida qabul qilib, jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shgan ajdodlarimiz shijoati, qat'iya-ti, boy ilmiy merosini puxta o'rgangan holda yoshlar tarbiyasi, ta'limi, e'tiqodi borasida kurash boshlashi kerak. Ularni istilochi davlatlarning loyihalari o'laroq jamiyatlar ichiga kirib kelgan "ommaviy madaniyat", radikalizm va ekstremizm xavfidan asrasha aslo sustkashlikka, loqayd qarash va ko'nim-larga yo'l qo'yimaslik ham farz, ham qarzdor. Shu ma'noda, Prezidentimiz "Jaholatga qarshi — ma'rifat"ni qurol qilgan ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan boy ma'naviy meros o'ziga xos najot qal'asi, himoya qo'rg'oni vazifasini o'taydi", deganda ming karra haq edi.

Ushbu mulohazalardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biz intilayotgan qutb ma'rifat ekan, yoshlar ta'lim va tarbiyasiga mas'ullarning vazifasi bitta. U ham bo'lsa, shogirdlarida ilmu hunarga intilishni rag'batlantirish va ularni radikal qarashlardan asrash.

ISLOHOT ODIMLARI

2021-YIL NOYABR OYIDA BO'LIB O'TGAN BMTNING IQLIM O'ZGARISHI BO'YICHA DOIRAVIY KONVENSIYASINING 26-YIG'ILISHIDA (COP26) O'ZBEKISTON TOMONIDAN PARIJ BITIMI DOIRASIDA 2030-YILGA QADAR YALPI ICHKI MAHSULOT BIRLIGIDA ISSIQXONA GAZLARI EMISSIYASINI 2010-YILGI KO'RSATKICHLARGA NISBATAN 35 FOIZ KAMAYTIRISH BO'YICHA QO'SHIMCHA MAJBURIYATNI O'Z ZIMMASIGA OLISHI HAQIDA BAYONOT BERILDI.

OLTI MUHIM LOYIHA

yoxud O'zbekistonning "yashil" energiyaga o'tish tashabbuslarining amaliy ifodasi



Abdurauq QORJOV,
iqtisodiy sharhlovchi

Boshlanishi 1-betda

Bu biz uchun chindan ham tarixiy va unutilmas voqea bo'ldi. Chunki yaqin-yaqingacha qishloq-ovullarimizni oddiygina elektr toki bilan ta'minlashning o'zi katta masala edi. Odamlar uylarida chiroq bo'lmisligiga ko'nikib ham qolayotgandi. Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar izchilligi ana shunday muammolarni bartaraf etyapti. Sohadagi loyihalar uylarimiz yanada charog'on, turmushimiz yanada fayzli va farovon bo'lishiga zamin yaratyapti. Bunda eng zamonaviy va tabiiy imkoniyatlardan samarali foydalanilayotgani, jarayonga xalqaro doirada sarmoyadorlar katta qiziqish bildirayotgani, ayniqsa, diqqatga sazovor. Binobarin, bugun "yashil" iqtisodiyot va "yashil" energetika zamon talabi hamda ustuvor vazifaga aylanib bormoqda.

"Yashil" energiya "yashil" va ekologik iqtisodiyot bilan uzviy bog'liq. Bu 2008-yil oxirida BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) tomonidan yashil sektorlarni rag'batlantirish va loqaydlikni o'zgartirish uchun investitsiya siyosati, keng qamrovli iqtisodiyot tarmoqlari va atrof-muhit bilan uyg'unlashirilgan amaliy ish mexanizmi sifatida taqdim etilgan.

Bu ertangi kun paydovori, — deydi iqtisod fanlari doktori Abduravil Isajonov. — Iqtisodiy o'sishning an'anaviy modelidan "yashil" iqtisodiyotga o'tish umumjahon trendi bo'lib, u nafaqat alohida milliy, balki jahon iqtisodiyotining barqarorligini belgilab beradi. Mazkur tamoyilni ilgari surish esa taraqqiyotning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2009-yilning iyun oyida 34 ta mamlakat "Yashil" iqtisodiyot deklaratsiyasini imzoladi.

Ekspertlarning tahlilicha, bu kabi konsepsiya va bayonotlar 2012-yil 20-iyun kuni Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida BMTning Barqaror rivojlanish bo'yicha konferensiyasigacha global jihatdan e'tibordan chetda bo'lgan. Ushbu anjumanda 1992-yilda Rio-de-Janeyroda shakllantirilgan barqaror rivojlanishning umumiy siyosiy ustuvorligiga, markaziy elementi tarkibiy iqtisodiy yangilanishlardan iborat bo'lgan aniq, ko'p o'lchovli strategiyada o'zgarish yaratishga harakat qilindi.

Mazkur tamoyillar barqaror rivojlanish konsepsiyasining o'rnini bosmaydi, ammo bugungi kunda unga erishish uchun "qo'ng'irang" iqtisodiyot modelini o'zgartirish zarurligi e'tirof etilmoqda. Bunda barqarorlik uzoq muddatli maqsad bo'lib qoladi va unga erishish iqtisodiyotni yashillashtirishni taqozo etadi. Uni amalga oshirishda ko'proq ekologik va ijtimoiy imtiyozlar ta'minlanadi. Buning uchun qashshoqlikni kamaytirish, tabiiy kapitalga sarmoya kiritish va uni qayta tiklash, ish o'rinlari yaratish, ijtimoiy tenglikni yaxshilash, qayta tiklanadigan energiya va uning samaradorligini rag'batlantirish imkoniyatlariga e'tibor talab etiladi.

Tabiiy resurslardan oqilona va barqaror foydalanmaslik natijasida kelib chiquvchi salbiy oqibatlarni bartaraf etish maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlar o'z ekologik tizimini, biologik xilma-xilligini va iqlimini yaxshilash uchun har yili 70-100 milliard AQSH dollaridan kam bo'lmagan miqdorda investitsiya kiritishi zarur. Shu bilan birga, bunda rivojlanayotgan mamlakatlarning investitsion salohiyati ancha pastligini e'tiborga olish kerak bo'ladi. BMT tavsiyasiga ko'ra, davlatlar o'z yalpi ichki mahsulotining hech bo'lmaganda 1 foizini "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirishi lozim.

Muhim va samarali yechimlar

"Yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar haqida gap ketganda, Prezidentimizning 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini alohida qayd etish zarur. Qaror bilan "Yashil iqtisodiyot" strategiyasi, dasturi, harakatlar rejasini, konsepsiyasi va yoqilg'i-energetika resurslarini tejashning maqsadli parametrlari, shuningdek, belgilangan choralarini muvofiqlashtirish bo'yicha idoralararo kengash tarkibi yangilandi, ishchi organi vazifasini bajaruvchi loyiha ofisining texnik kotibiyati tashkil etildi.

2021-yil noyabr oyida bo'lib o'tgan BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasining 26-yig'ilishida (COP26) O'zbekiston tomonidan Parij bitimi doirasida 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot birligida issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yilgi ko'rsatkichlarga nisbatan 35 foiz kamaytirish bo'yicha qo'shimcha majburiyatni o'z zimmasiga olishi haqida bayonot berildi.

2022-yilning may oyida O'zbekiston 2030-yilga qadar metan emissiyasini 2020-yilga nisbatan kamida 30 foizga kamaytirish borasidagi mamlakatlarning jamoaviy maqsadga erishishi bo'yicha global majburiyat to'g'risidagi tashabbusiga (Global Methane Pledge) Buxoro shahrida bo'lib o'tgan kambag'allikni qisqartirish mavzusidagi Xalqaro forum doirasida qo'shildi. Tashabbus doirasida amaliy harakatni boshlash maqsadida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda "Metan emissiyasini kamaytirish milliy dasturi"ni ishlab chiqish loyihasini amalga oshirish boshlandi.



Davlatimiz rahbarining 2021-yil 30-may kuni Janubiy Koreya poytaxtida videoanjuman shaklida o'tgan "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik — 2030" ikkinchi xalqaro sammitidagi nutqi xalqaro ekspertlar, ishtirokchi davlatlar tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olindi. Chunki unda xalqaro hamjamiyatni yana bir bor tabiiy boyliklardan unumli, oqilona foydalanishga, ona tabiatning o'zi bizga yo'llayotgan ogohlik qo'ng'irog'iga berparvo bo'lmislikka chorlandi.

— Prezidentimizning 2023-yil 1-dekabrda Birlashgan Arab Amirliklarida bo'lib o'tgan BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasidagi (COP28) nutqida iqlim muammolari barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurani, bu xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatayotgani, uning salbiy oqibatlari Orol fojiasini tufayli Markaziy Osiyoda, ayniqsa, jiddiy sezilayotgani qayd etildi, — deydi falsafa fanlari doktori, professor Azamat Muxtorov.

Xususan, mintaqada havo haroratining oshishi jahondagi o'rta ko'rsatkichdan ikki barobar ko'p. Favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi yo'qoldi. "Yashil" iqtisodiyotning ijtimoiy ahamiyati shundaki, undan davlat yoki tadbirkorlik subyektlari emas, eng avvalo, oddiy odamlar foyda ko'radi. Chunki iqtisodiyotning turli tarmoqlarida "yashil texnologiyalar" joriy etilishi aholining yashash sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida, masalan, qishloq xo'jaligi ekinlari turli zararli kimyoviy moddalarsiz parvarishlanadi, bu, o'z navbatida, oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini oshiradi, shahar qishloqlarda bog'rog'lar, "yashil" maskanlar kengayishi va transportning toza ekologik yoqilg'iga o'tishi esa odamlar salomatligini yaxshilaydi, o'rta umr ko'rish davomiyligi uzayadi.

Davlatimiz rahbari ana shu jihatlarni hisobga olgan holda, "yashil" iqtisodiyotga o'tish va uglerod neytralligiga erishish yangi O'zbekistonning ustuvor strategik vazifasi ekanini ta'kidladi va quyidagi takliflarni ilgari surdi: Parij shartnomasi doirasida Iqlim o'zgarishiga moslashish sohasidagi Global hadli mexanizmi tezroq kelishish, Markaziy Osiyo iqlim muloqoti platformasida Adaptatsiya strategiyasini ishlab chiqish, global miqyosda kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish, BMT rezolyutsiyasi asosida Orolbo'yi hududini ekologik ofat zonasidan "innovatsiyalar, texnologiyalar va yangi imkoniyatlar mintaqasi"ga aylantirish uchun Iqlim texnologiyalari xalqaro ekspozitsiyasini yaratish bo'yicha yaqin hamkorlik qilish,

2018-yil 27-noyabr kuni BMT qarorgohida nafaqat O'zbekiston, balki jahon hamjamiyati uchun ham tarixiy voqea yuz berib, BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'p shiriklik Trast jamg'armasi tashkil etildi. Mazkur jamg'arma Orolbo'yi aholisi turmush faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tibbiy, iqtisodiy rivojlantirish, ekologik, ijtimoiy himoya va boshqa sohalarga oid muammolarni hal qilishda O'zbekiston hukumati, BMT agentliklari, donorlik hamjamiyatlarining sa'y-harakatini birlashtirish orqali mintaqani rivojlantirish uchun texnik hamda moliyaviy resurslarni safarbar qilish ishlarini amalga oshirib kelmoqda.

Shu yil boshiga qadar jamg'arma strategiyasi doirasida Orolbo'yi mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq, turli loyihalarni moliyalashtirish uchun 244 million dollar ga yaqin mablag' jalb qilingan. Jamg'arma tomonidan 5 ta qo'shma dastur moliyalashtirilgan.

Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda davlat ulushi bor yirik korxonalarda ESG ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillarining (Environmental, Social,

Governance — ESG) joriy qilinishi holati o'rganildi, ushbu tamoyillarni tatbiq etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Mamlakatimiz Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA) bilan ham "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha hamkorlik qilib kelmog'da. Bundan uch yil oldin hozirgi iqtisodiyot va moliya vazirligi o'rtasida imzolangan birinchi kredit shartnomasi qiymati 150 million yevroni tashkil qilgan edi.

Besh yilga mo'ljallangan hamkorlikdan ko'zlangan maqsad "yashil" iqtisodiyotning yangi strategik mexanizmini tayyorlash, moliyalashtirish va amalga oshirishdan iborat bo'lib, uning markazida O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga moslashish yotadi.

2024-2025-yillarga mo'ljallangan budjetnomada FTA hamda BMTning Taraqqiyot dasturi hamkorligida "Iqlim o'zgarishi sohasida davlat xarajatlari va institutsional tahlil: O'zbekiston" hisoboti tayyorlanadi. Uning natijalariga ko'ra, davlat budjeti xarajatlarning 10-11 foizi iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan choralariga samarali yo'naltirilayotgani xulosa qilingan.

2002-yil fevral oyida Global yashil o'sish instituti MDH hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi vakolatxonasini O'zbekistonda ochdi. Institut xalqaro hukumatlararo tashkilot bo'lib, bosh ofisi Janubiy Koreyaning Seul shahrida joylashgan. Uning maqsadi — iqlim o'zgarishi sharoitida taraqqiyot etgan hamda bozor iqtisodiyotini tanlagan mamlakatlarda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish yo'li orqali barqaror iqtisodiy o'sishga ko'maklashish hisoblanadi.

Instituting O'zbekistondagi vakolatxonasi va Fransiya taraqqiyot agentligi o'rtasida strategik ekologik baholashni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 145 ming yevro miqdoridagi grant shartnomasi imzolanganida esa skrinning tadbirlarini amalga oshirish, hukumatning atrof-muhit bo'yicha olib borayotgan tadbirlari va tajribalarini atrof-muhitni asrab-avaylash bo'yicha rejalashtirish jarayonida foydalanishda yordam beradi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan dunyoda va alohida mamlakatlarda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish va "yashil" o'sishga o'tish holatini baholash imkonini beruvchi turli ko'rsatkichlar to'plamlari ishlab chiqilgan bo'lib, amaliyotda qo'llab kelinadi, — deydi iqtisod fanlari nomzodi, ekspert Abdurahmat Boymurodov. — Xususan, bugungi kunda dunyo bo'yicha "yashil" iqtisodiyot samaradorligini baholaydigan Global "yashil" iqtisodiyot indeksi (Global Green Economy Index — GGEI) hamda "Yashil" o'sish indeksi (Green Growth Index — GGI) kabi xalqaro reyting ko'rsatkichlari keng qo'llanilmoqda.

Bundan bir oy oldin Jahon banki O'zbekistonda iqlim o'zgarishi va rivojlantirishga oid yangi hisobotini e'lon qildi. Unda qayd etilishicha, mamlakatda iqlim o'zgarishi O'zbekiston aholisiga turlicha ta'sir ko'rsatadi va 2030-yilga borib, butun mamlakat bo'yicha kamida 8 million odam yuqori iqlim xavfi mavjud tumanlarda yashay boshlaydi.

Iqtisodiyotni 2060-yilga borib, karbonsizlantirish (karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish) O'zbekistondagi issiqxona gazlari chiqindilarining qariyb 75 foizini tashkil etuvchi energetika sektoriga e'tibor qaratishni talab qiladi. Karbonsizlantirish

dasturlarini amalga oshirish va moslashtirish uchun katta miqdorda investitsiya talab etiladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonda iqlimning mehnat unumdorligiga, yo'llar va ko'priklar, chorvachilik va irrigatsiya sektoriga salbiy ta'sirini yumshatish uchun taxminan 60 milliard, 2060-yilga borib, eskirayotgan energetika infratuzilmasini almashtirish va ushbu sektorni karbonsizlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun qariyb 340 milliard dollar sarmoya kiritish kerak bo'ladi.

Joriy yilning 12-oktabr kuni O'zbekiston hukumati va Jahon banki "O'zbekiston energetika sektorini transformatsiya qilish uchun innovatsion uglerodli moliyalashtirish" (iCRAFT) loyihasini amalga oshirish bo'yicha 46,25 million dollar miqdorida bitim imzolangan edi. Loyiha toza energiya ishlab chiqarishga, energiya samaradorligini oshirish va subsidiyalarni isloh qilishga ko'mak beradi.

Kelgusi yetti yilda nimaga erishamiz?

Marosimda davlatimiz rahbari mamlakatimizda "yashil" energetika bo'yicha nihoyatda ulkan salohiyat mavjudligini, Yaratganning o'zi bergan bu buyuk imkoniyatdan unumli foydalanib, uni xalqimiz manfaatlariga yo'naltirish zarurligini alohida ta'kidladi.

E'tiborlisi, bugun ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami tobora kengayib bormoqda. Hozirgacha ro'yog'ga chiqarilgan va kuni kecha start berilgan loyihalar shunday ish-yaraktarlar samarasidir. Va bu ishlar tizimli va izchil davom ettirilmoqda. Ya'ni ayni paytda yurtimizda 9 gigavattli 22 ta quyosh va shamol elektr taraqqiyot agentligi loyihalari ustida jadal ish olib borilmoqda. Shu bilan birga, yangi generatsiya quvvatlarini yetkazish uchun infratuzilmani yanada yaxshilashga alohida urg'u berilyapti. Kelgusi besh yilda jami 70 ming kilometr past kuchlanishli elektr tarmoqlari, 22 mingta transformator, 100 dan ortiq podstantsiyalar to'liq yangilanadi. Shuningdek, 10 ming kilometr yuqori kuchlanishli yangi magistral tarmoqlar barpo etiladi.

Umuman, kelgusi yetti yilda O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari 25 ming MVT ga hamda uning jami iste'moldagi ulushi 40 foizga yetkaziladi. Sanoatda "yashil" sertifikatlar bozori rivojlantirilib, "ekologik markirovkalash" amaliyoti joriy qilinadi, Iqtisodiyot tarmoqlarining energiya samaradorligi 2 barobar oshirilib, issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan 2010-yildagi darajadan 30 foizga qisqartiriladi. Shaharlar bosh rejasini tuzishda ular hududining kamida 30 foizini yashil maydonlar tashkil etishi, turar joy binolarini qurishda "yashil" maydonlar aholi soniga munosib bo'lishi ta'minlanadi, suv ishlatish samaradorligi 25 foizga oshirilib, qishloq xo'jaligida suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydoni 2 million gektargacha yetkaziladi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasidan o'rin olgan "yashil" iqtisodiyotga doir bu kabi maqsad-vazifalar ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Mavzuning qamrovli keng. Mazkur sharda "yashil" energetikaga oid loyihalar fonda "yashil" iqtisodiyotga doir umumiy tushunchalar, mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar va oldinda turgan maqsad-vazifalarning ustuvor jihatlari haqida so'z yuritishga harakat qildik, xolos. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, sanoatda "yashil" sertifikatlar bozorini rivojlantirish, "yashil" turdagi faoliyatni tasniflash mezonlarining ahamiyati kabi yo'nalishlar keyingi chiqishlarimiz mavzusi bo'ladi.



QISHLOQ XO'JALIGI



Jahongir GALAYEV,
O'zbekiston fermer, dehqon
xo'jaliklari va tomorqa
yer egalari kengashi bosh
mutaxassisi

Boshlanishi 1-betda

Xo'sh, qanday qilib? Aytaylik, avval faqat paxta tolasini eksport qilgan bo'lsak, endi ana shu xomashyodan qo'shimcha qiymat yaratish, ya'ni tayyor mahsulotlar sotish orqali daromad bir necha barobar oshib boryapti.

Gap dunyo iqtisodiyoti barqarorligining muhim omili — qo'shimcha qiymatning yaxlit zanjirini yaratish, bunda soha va tarmoqlar imkoniyati haqida borar ekan, agrar tarmoqqa to'xtalib o'tmaslikning iloji yo'q. Chunki qishloq xo'jaligi nafaqat O'zbekiston, balki dunyo miqyosida ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ham sanoat tarmoqlari uchun eng yirik xomashyo bazalaridan biri hisoblanadi. Agar bunga qo'shimcha qiymat yaratish nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, ko'p xomashyo katta imkoniyat, demakdir.

Aynan shuning uchun barcha soha va tarmoqlar kabi agrar sektorda ham jadal yangilanish, zamon talablari, xalqaro raqobatga moslashishga qaratilgan islohotlar kechaypti. Bu borada, avvalo, qishloq xo'jaligi sohasiga bozor tamoyillarini joriy etish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, agrar tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 10 ga yaqin qonun, Prezidentimizning 30 dan ortiq farmon va qarorlari qabul qilinib, soha rivojining huquqiy asoslari yanada mustahkamlandi.

Shular asosida davlatimiz rahbarining qat'iy talabi va tashabbusi bilan mamlakatimizda yerga munosabat o'zgardi. Tarmoqlar bo'yicha klasterlar tashkil etilib, qishloq xo'jaligini sanoatlashtirish boshlandi. Bu esa, o'z navbatida, birinchidan, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga tobora oshib borayotgan tala-

ERKIN BOZOR IQTISODIYOTI SARI YANA BIR QADAM

Agrar tarmoqda manfaatdorlik oshirilayotgani yangi marralarga zamin yaratadi

bini qondirish, ikkinchidan, qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish orqali hududlarning iqtisodiy salohiyati va yurtdoshlarimiz farovonligini oshirishda hal qiluvchi muhim omilga aylandi.

Mamlakatimizda byurokratiyaga asoslangan uzoq yillik paxta yakkahokimligidan so'ng agrar tarmoqqa bozor munosabatlari ni tatbiq etish, bunda fermer va dehqonlarni moddiy rag'batlantirish orqali hosildorlikni oshirish, umuman, soha faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilayotgani qo'lga kiritilayotgan yutuqlarga asosiy zamin bo'lmoqda.

Yuqorida aytilganidek, qishloq xo'jaligi sohasi ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash,

jumladan, bir gektardan olinadigan o'rta daromadni 5 ming dollarga, eksport hajmini esa yiliga 10 milliard dollarga yetkazish, 15 milliard dollar investitsiya jalb qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko'rsatkichining 25 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlash kabi ustuvor vazifalar belgilangan boisi ham shunda.

Ushbu ustuvor maqsadlar ijrosini ta'minlashda Prezidentimizning 2023-yil 12-dekabrda "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlari yanada rivojlanishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni muhim ahamiyatga ega. Zero, ushbu hujjatda ko'zda tutilgan vazifalar qishloq xo-



ham sanoat uchun xomashyo yetkazib berish nuqtayi nazaridan muhim tarmoq hisoblanadi. E'tibori jihat, sohada buning uchun katta salohiyat mavjud. Buni ushbu soha YIMning 27 foizdan ko'prog'ini, bandlikning deyarli 26 foizini ta'minlayotgani misolida ham ko'rish mumkin. Binobarin, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish,

jaligida erkin bozor munosabatlari yanada rivojlanish, paxta xomashyosi yetishtiruvchi xo'jalik va klasterlar o'rtasida munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkin: paxta xomashyosi yetishtiruvchi xo'jalik va klasterlar o'rtasida qanday muammo bo'lishi mumkin? Gap shundaki, o'tgan yillar mavsumida klas-



terlar va fermer xo'jaliklari o'rtasida paxta xomashyosi narxini belgilashda ayrim tushunmovchiliklar kuzatiladi. Bu esa tomonlar munosabatlari huquqiy jihatdan izga solish masalasi dolzarb vazifa o'laroq, kun tartibiga olib chiqildi. Shunga muvofiq, dastlab Prezidentimizning 2023-yil 26-yanvardagi "Paxta xomashyosini yetishtiruvchilar faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tomonlar o'rtasida fyuchers shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish va monitoring qilish tizimi yo'lga qo'yildi. Shuningdek, paxta-to'qimachilik klasterlari bo'nak mablag'larini ishlab chiqaruvchilar bilan kelishuv asosida pul va moddiy resurslar shaklida amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Yuqoridagi farmon bilan esa, avvalo, paxta xomashyosini yetishtiruvchi xo'jaliklarning mahsulotini sotishda erkinligi kafolatlanmoqda. Ya'ni endi paxta xomashyosi yetishtiruvchi va klasterlar o'rtasidagi paxta xomashyosini yetkazib berish bo'yicha fyuchers shartnomalari birjada har bir hudud bo'yicha alohida o'tkaziladigan savdolar natijasiga ko'ra erkin tuziladi. Boshqacha aytganda, fermer o'zi yetishtiradigan paxta miqdorini birjaga joy-

lashtiradi hamda viloyat ichidagi qaysi klaster balandroq narx taklif qilsa, o'sha bilan shartnoma tuzadi. Bu mirishkor mehnatiga yarasha daromad oladi, degani. O'z o'rinda, manfaatdorlikka yo'naltirilgan ushbu tartib fermer va dehqonlarning hosildorlikni oshirishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi.

Shuningdek, hujjat bilan ortiqcha yetishtirilgan, jumladan, o'z mablag'i va tijorat kreditlari hisobiga yetishtirilgan paxta xomashyosi yetishtiruvchilar tomonidan birja orqali tadbirkorlik subyektlariga sotilishi mumkin. Bu ham mahsulot yetishtiruvchilarning manfaatdorligi va daromadi oshirishga, paxta yetishtirishda zamonaviy usullarni keng qo'llash hamda agrotexnik tadbirlarni olib borishga, yerlarning sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Muhim jihati, farmon bilan ko'plab fermer va dehqon xo'jaliklarini qiyinlab kelayotgan mablag' masalasiga ham yechim berildi. Ya'ni fyuchers shartnomasi tuzgan yetishtiruvchi va urug'chilik subyektlariga har yili 1-oktyabrdan boshlab paxta xomashyosi yetishtirish uchun xomashyo qiymatining 60 foizigacha, yillik 10 foizda 14 oyga kredit ajratilishi belgilanmoqda. Ahamiyatli, ajratilayotgan kredit 12 oylik imtiyozli davr bilan

beriladi. Mahsulot yetishtiruvchilar mazkur mablag' hisobidan agrotexnik tadbirlar doirasidagi tovarlar, jumladan, moddiy resurslar yetkazib beruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilarni ixtiyoriy ravishda tanlashi mumkin. Bu esa mahsulot yetishtiruvchilarga xizmat ko'rsatishda raqobat muhitining yuzaga kelishi va sifat jihatdan yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Klasterlarga esa paxta xaridi bo'yicha yakuniy hisob-kitob uchun paxta qiymatining 80 foizigacha, yillik 10 foizda 10 oyga, jumladan, 6 oylik imtiyozli davr va oxirgi 4 oy davomida teng ulushlarda qaytarish sharti bilan kredit ajratiladi.

Fyuchers shartnomasiga asosan yetishtiruvchilardan qabul qilingan paxta uchun to'lovlarining 80 foizi paxta qabul qilib olingan kundan boshlab 3 ish kunidan kechiktirmasdan, qolgan qismi o'sha yilning 31-dekabr kunigacha amalga oshiriladi.

2024-yildan boshlab, klasterlar faoliyati qishloq xo'jaligi vaziri bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyat hokimlarining qarori bilan tashkil etiladi. Klaster tashkil etish uchun esa talabgorlar to'qimachilik mahsulotlari, ya'ni ip-kalava, trikotaj mato, gazlama, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlarining kamida ikkita bosqichini yo'lga qo'yishi lozim.

Bundan tashqari, ro'yxatdan o'tgan va faoliyat yuritayotgan klasterlar tugatilish bosqichida emasligi, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atilmagan va "yomon" kredit tarixiga ega bo'lmagan hamda soliqlardan qarzidorligi yo'q bo'lishi shart. Asosiy, klaster faoliyatini tashkil etish istagida bo'lgan talabgorlar ochiq va shaffof onlayn tanlov asosida tanlab olinadi.

Farmon bilan klasterlar va boshqa to'qimachilik korxonalarini tomonidan paxta xomashyosi to'liq elektron tarozi orqali qabul qilinishi borasidagi talab ham yaratilayotgan qulayliklardan biri. Bu orqali eski tizim, qayd etish kitoblariga ma'lumotlarni qo'lga kiritishga barham berilib, real vaqt rejimida hisobotlarni olish yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, paxta to'plamiga barcha ma'lumotlar kiritilgan QR kod olinadi. Tizimda bu kabi shaffoflik ta'minlanishi ortidan turli noqonuniy holatlarga barham beriladi.

Umuman, agrar sohaga bozor iqtisodiyoti talablarini tatbiq etishdan ko'zlangan pirovard maqsad — fermer va dehqonlar manfaatdorligini oshirish orqali yuqori hosildorlikka erishish. Bu, o'z navbatida, aholi farovonligini yuksaltirish, iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashga zamin yaratishi bilan ahamiyatlidir.

BUGUNNING GAPI



Abdusattor ABDUMOV,
Makroiqtisodiy va hududiy
tadqiqotlar instituti
yetakchi ilmiy xodimi

Aynan shuning uchun ham mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish yangi O'zbekistonda barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek buyuk maqsadlar yo'lida olib borilayotgan islohotlarda alohida o'rinni egallaydi. Prezidentimizning 19-dekabr kuni poytaxtimizda o'tkazilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimida nuqtida ham ayni jihatlarga alohida e'tibor qaratib, O'zbekistonda unga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan tizimiy huquqiy va institutsional islohotlar haqida to'xtalib o'tdi.

Davlatimiz rahbari korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yaqin istiqbolga mo'ljallangan reja va takliflarini bildirar ekan, korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchidir, dedi.

Darhaqiqat, biz butun bir jamiyat o'laroq farovon yashashni maqsad qilar ekanmiz, korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga toqatsiz bo'lishimiz shart.

Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: korrupsiyaning qanday ko'rinishlari bor? Bu savolga

SOLIQ MADANIYATI

Uning mamlakat taraqqiyotidagi o'rnini qanday?

Etimologik ma'nosi "buzish", "sotib olish", kengroq ma'noda esa "belgilangan tartiblarni chetlab o'tish", "vakolatli shaxslar qarorlarini ma'lum haq evaziga o'z foydasiga og'dirish" ma'nolarini anglatuvchi korruptsiya, shubhasiz, taraqqiyotning eng asosiy zavolidir. Binobarin, bu illat bor joyda tenglik bo'lmaydi, tenglik bo'lmagan jamiyatda davlatga, kelajakka ishonch so'nadi, ishonchsizlik hukmron joyda taraqqiyotning birlamchi shartlari bo'lgan jipslik, hamjihatlik, shijoat, tashabbuskorlik yetishmaydi. Bu kentiklarsiz esa xoh u iqtisodiy barqarorlik, xoh ijtimoiy rivojlanish bo'lsin, davlat ham, jamiyat ham ko'zlagan maqsadlariga erisha olmaydi.

Misol uchun, Yaponiyada uning ulushi ancha kam — 8,1 foiz. Taqqoslash uchun: AQSHda ushbu ko'rsatkich 8 foiz, Singapurda — 8,6 foiz, Avstraliya — 9 foiz, Buyuk Britaniyada — 9,6 foiz, Germaniyada — 10,2 foiz, Kanadada — 11 foiz.

Yaponiyada soliqlar fuqarolar uchun in-tizimiy omil sifatida juda muhim rol o'ynaydi. Soliq to'lovchilar o'z to'lov majburiyatiga juda jiddiy yondashadi. Chunki bu majburiyat davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ularning qo'shadigan shaxsiy hisssasi o'laroq

Bugungi kunda mamlakatimizda "yashirin iqtisodiyot"ning ulushi turli hisob-kitoblarga ko'ra, 40 foizdan 60 foizgacha. Jumladan, Strategik rivojlanish agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda iqtisodiyotimizning turli tarmoqlarida uning ulushi 48 foizdan 62 foizgacha bo'lgan. Shu bilan birga, 2023-yil oktabr oyida Tadbirkorlar va ishlabarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi O'zbekistonda "yashirin iqtisodiyot" ulushi 40 foizni tashkil etishini ma'lum qildi. Uyoj-uy va transport vositalarining ikkilamchi bozori, norasmiy savdo, xizmatlar ko'rsatish va boshqa sohalar yuzasida "yashirin iqtisodiyot" rivojlanishining asosiy omillari bo'ldi.

2022-yilda iqtisodiy faol aholi soni qariyb 15 million kishini tashkil etgani ham e'tiborga molik. Ularning 9 millionga yaqini norasmiy sektorda band bo'lgan. Hisob-kitoblarimizga ko'ra, norasmiy sektordagi ish haqi rasmiy ish haqiga teng bo'lgan taqdirda, 2022-yilda davlat budjeti soliq tushumlaridan 32,9 trillion so'm olmagani.

Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga qaraganda, 2019-yilda MDH davlatlari orasida "yashirin iqtisodiyot"ning eng yuqori ulushi Ukraina (qariyb 45 foiz), Belarus (44,5 foiz) va Tojikiston (43 foiz)da qayd etilgan. Qozog'iston, Rossiya va Qirg'izistonda yashirin sektorning ulushi 38 foiz atrofida bo'lgan.

Mamlakatimizda uning darajasini pasaytirish maqsadida biznes yuritish shartlarini soddalashtirish va raqamli yechimlardan foydalanishni faollashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i stavkasi 2017-yildagi 5 foizdan 2022-yilda 1,5 foizga, shuningdek, amaldagi soliq turlari 13 tadan 9 taga va soliq tekshiruvlari 13 tadan 3 taga kamaytirildi.

Natijada aholining tadbirkorlik faolligi oshdi — ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari soni 2017-yildagi 229,6 mingtadan 2022-yilda

ko'pchiligidir biror ishni hal qilish uchun vakolatli shaxslarga pora berishni tushunamiz. Lekin "yomon qonunning urug'i ko'p" bo'lganidek, bu illatning ko'rinishi turfa xil. Ya'ni yuqorida aytib o'tganimizdek, qonun bilan belgilangan tartibni chetlab o'tish, vakolatli shaxslar qarorlarini sotib olish bilan bog'liq barcha jarayon korrupsiyaga "qarindosh".

Iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri — "yashirin iqtisodiyot" ham uning bir ko'rinishi hisoblanadi. Ma'lumki, "yashirin iqtisodiyot" mohiyatiga ko'ra, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash, shu sababli davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning zaiflashishi natijasidir. Shunday qilib, "yashirin iqtisodiyot" jamiyat va davlatga raqobat muhiti buzilishi, mahsulot sifatini va miqdori pasayishi, davlat byudjetiga soliq tushumlari qisqarishi, shuningdek, iqtisodiy o'sishning sekinlashishi kabi salbiy ta'sirlarni ko'rsatadi.

"Yashirin iqtisodiyot"ning salbiy ta'sirini yaqqol ko'rsatish uchun 10 kishilik umumiy stolni tasavvur qilsak, rejadagi dasturxon yozilishi har bir kishidan 100 ming so'm mablag' talab qiladi, ammo 10 kishidan faqat 5 nafarigina pul ajratsa, dasturxon 500 ming so'm qiymatga ega bo'lgan ne'matlar bilan yoziladi. Natijada dasturxonidagi taomlarning sifati va miqdori kutilganidan past bo'ladi. Guruhdagi-

XALQARO VALYUTA JAMG'ARMASI MA'LUMOTLARIGA QARAGANDA, 2019-YILDA MDH DAVLATLARI ORASIDA "YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ENG YUQORI ULUSHI UKRAINA (QARIYB 45 FOIZ), BELARUS (44,5 FOIZ) VA TOJIKISTON (43 FOIZ)DA QAYD ETILGAN. QOZOG'ISTON, ROSSIYA VA QIRG'IZISTONDA YASHIRIN SEKTORNING ULUSHI 38 FOIZ ATROFIDA BO'LGAN.

lardan yarmining to'lovdan bo'yin tovlashi si-fatsiz mahsulotlar xarid qilinishiga olib keladi. Bu esa, tabiiyki, to'laganlar tomonidan salbiy qabul qilinadi.

Xuddi shunday holat soliqlar bilan ham sodir bo'ladi: agar aholi yoki tadbirkorlarning bir qismi soliq to'lama va davlatdan xizmatlarni olishda davom etsa, doimiy ravishda soliq to'laydiganlar bundan aziyat chekadi va xizmatlarning umumiy sifati kutilganidan past bo'ladi. Shuning uchun soliq to'lash, xoh u fuqaro yoki tadbirkor bo'lsin, huquq emas, balki burch hisoblanadi. Uni qisqartirishni ixtiyoriy ravishda soyadan chiqishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Bugungi kunda dunyoda "yashirin iqtisodiyot" darajasi turli mamlakatlarda turlicha.



tushuniladi. Bundan tashqari, kunchiqar yurtda budget daromadlarini taqsimlashning yetarlicha shaffof tizimi mavjud, fuqarolar davlat aholidan to'plangan mablag'lardan qanday foydalanayotganining amaliy natijasini bevosita ko'rish mumkin.

DOLZARB MAVZU

VATANPARVARLIK HISSI

har birimizdan metin iroda, mislsiz qudrat va shijoat talab etadi



E'zoza KARIMOVA,
"Yangi O'zbekiston"
universiteti prorektori,
sotsiologiya fanlari nomzodi,
dotsent

Boshlanishi 1-betda

"Biz hozirgi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon ta'lablariga javob beryaptimi?", deya davlatimiz rahbari tomonidan o'rtaga tashlangan savolga yuzlanadigan bo'lsak, bugun biz mana shu sohada yetakchi bo'la olmasak, mentalitetimizga yot g'oyalari, umuminsoniy va milliy qadriyatlar nurashiga olib keladigan axboriy bosimlar, davlat suverenitetiga qarshi tahdidlar global internet tarmog'i orqali ongimizni zaharlab boraveradi. Afsuski, o'ramizda bundaylar kam bo'lsa-da, bor. Bunday tuzoqlarga ko'proq yoshlarimiz tushib qolayotgani esa achinarli. Bu yoshlar begona emas, ular siz-zu bizning farzandlarimiz!

Yig'ilishda aynan shuning uchun yoshlarimizni bunday manfur kimsalar qo'lga topshirib qo'yimasligimiz ta'kidlandi.

Jaholatga qarshi har doim ma'rifat bilan kurashilgani kabi biz, ziyolilar bu yo'ldagi sa'y-harakatlarda bardavom bo'lamiz. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Kelajakimizni yovuz kuchlar qo'lga berib qo'yishga aslo haqqimiz yo'q".

Gohida "Ma'naviyat kimga kerak, nima qilib beradi bu ma'naviyat", deya butun ma'naviy tizimimizni izdan chiqarishga urinayotgan, ma'naviyat desa, "Kechirasiz, men bunday narsani tushunmayman", deya o'zini zamonaviy dunyoning eng oldi odami sifatida biladiganlarni ham ko'ramiz. Ma'naviy andaza, milliy dunyoqarash, umuminsonparvarlik tamoyili haqida gapir-sangiz, sizni zamondan ortda qolgan bir insondek gavalantirishga urinayotganlarni ham ko'rdik.

To'g'ri, bunda bizning ham aybimiz yo'q emas. Ayniqsa, ma'naviyat ma'rifiy yo'nalishda yoshlar bilan ishlashda ko'proq eski, samarasiz usullardan foydalandik. O'z navbatida, asosan, uzundan-uzoq ma'ruza, pand-nasihatga asoslangan targ'ibot-tashviqot ishlari kutilgan samarani bermadi.

Davlatimiz rahbari mazkur yig'ilishda ayni masalalarga ham to'xtalib, madaniy-ma'rifiy sohada ishlarini yangi bosqichga ko'tarish, yoshlarni kitobxonlik, ilmu ma'rifatga keng jalb etishning zamonaviy usullarini joriy etish bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilab bergani muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Umuman, yurtimizda ma'naviyat masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajalarida biri. Buning yaqqol tasdiqi sifatida Prezidentimiz Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining raisi ekani va ayni tizimda eng asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olganida ko'rish mumkin.

2023-yilda eng ko'p — 134 trillion so'm ijtimoiy sohaga yo'naltirildi. Bu 2016-yildagiga nisbatan 5,6 barobar ko'p, degani, boshqa tomondan olib qaralganda, "O'zbekiston — ijtimoiy davlat" tushunchasining amaldagi isbotidir. Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash uchun har yili 45 milliard so'm ajratilayapti. Yig'ilishda 2024-yildan boshlab bu ishlarni yanada faollashtirish uchun har yili 100 milliard so'm ajratilishi ma'lum qilindi.

Sir emas, ijtimoiy tarmoqlar orqali, asosan, chetdan, ba'zan hatto o'z ichimizdan ham Konstitutsiya va qonunlar

Umuman, boshqa sohalaridan farqli o'l-roq, ma'naviyat ma'rifiy yo'nalishdagi ishlar murakkab va muhimroq. Bu jarayonda barchamiz bir bo'lib, qo'lni-qo'lga berib, hamjihatlikda ishlashimiz muhim.

Bugun ma'naviyatimizni, o'zbekona qarashlarimizni asrab qolish uchun keskin kurashadigan payt. Muhimi, vatanparvarlar, ma'rifatparvarlar, ya'ni siz bizning uyg'oqligimiz, ogohliligimizdir! O'sha otlangan toshlarning zarbidan mustahkam himoyalani-sh uchun bugun mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlikni yanada kuchaytirish payti keldi. Shu ma'noda, ushbu yig'ilish-



rimizga zid qarashlar ilgari surilyapti, bunday qarashlarni ommalashtirishga urinishlar kuzatilmog'ida. Kezi kelganida ta'kidlash o'rinni, ijtimoiy tarmoqlarga joylanayotgan ayrim kontentlar borki, inson, ayniqsa, yoshlarimiz dunyoqarashini tamomila o'zgartirishga qodir. Bundaylarga nisbatan huquqiy javobgarlik qo'llaniladigan bo'lsa, bu holatni demokratiyaga zid, hurfikrlilikni bo'g'ish, deya talqin etadiganlar bor.



Jaholatga qarshi har doim ma'rifat bilan kurashilgani kabi biz, ziyolilar bu yo'ldagi sa'y-harakatlarda bardavom bo'lamiz.
"Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Kelajakimizni yovuz kuchlar qo'lga berib qo'yishga aslo haqqimiz yo'q".

da yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy, harbiy va boshqa shu kabi o'zgarishlarni inobatga olgan holda faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liqdir. Bunda davlatning o'z strategiyasi, milliy manfaatlarini, o'rni muhim ahamiyatga ega. Ushbu omillar uning davlat sifatida mavjud bo'lishi kafolatidir.

Bugun geosiyosiy dunyoda bosim, qarama-qarshilik va to'qnashuvlar kuchaydi. Afsuski, bu mintaqamiz, jumladan, O'zbekistonni ham chetlab o'tmayapti. Ayni murakkab sharoitda biz o'zbek, o'zbekistonlik, O'zbekiston degan nomlar bilan yashab qolishni istasak, har birimiz o'zimizni yurt taqdiriga daxldor deb bilishimiz shart. Har bir inson qalbida Vatanga muhabbat, ertangi kun uchun yonib yashash hissi bo'lmas ekan, kelajak avlodlar oldida uyalyib qo'llashimiz muqarrar. Binobarin, ajdodlarimiz elining mustaqilligi, millati hurligi uchun kurashib, kerak bo'lsa, qon to'kkan. Biz ham yurtimiz suverenitetini asrashimiz, bu yo'ldan qat'iy bormog'imiz lozim!

Inson tabiiy ravishda ijtimoiy mohiyat sifatida rivojlanib, takomillashib boradi. Bunda uning aqliy va hissiy imkoniyati katta rol o'ynaydi. Kishilik jamiyatidagi o'zgarishlar, yangilanishlar, kashfiyotlar va tanazzullar ana shu bioijtimoiy jarayonning konkret

mahsulidir. Hayot mohiyatining yo'qolishi, qadriyatlar unutilishi oqibatida insonning o'zligidan begonalashuvi bugungi dunyoning global inqirozi. Biz esa yuksak va keng ma'naviy olamimiz bilan bunga qarshi kurashmog'imiz kerak. Har qanday taraqqiyotning tayananchi — ma'naviyatni anglamaslik! Vatandashlik hissi kishidan metin iroda, mislsiz qudrat, ruhiy va ma'naviy shijoatni talab etadi.

Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosiga tayanib ish ko'rish ma'naviy poydevorlari mustahkam bo'lgan yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida muhim dastur bo'lib xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan, millat kelajagiga daxldor ushbu ma'rifiy soatni, bir so'z bilan global muammo va uning real, ilmiy va amaliy yechimlari, bugunimiz va istiqbolimizni belgilab beradigan, konseptual ahamiyatga molik yig'ilish, deiysh mumkin.

Prezidentimiz ulug' ma'rifatparvar bobomiz Ibrat domlaning "Millatni kim isloh etar? Ulamo g'ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur", degan hikmatli so'zlarini bejiz keltirmadi. Men buni mana shu yurt taqdiri va kelajagiga o'zini davlatning hisoblaydigan har bir ziyoliga murojaat deb tushundim. Darhaqiqat, ma'ruza keltilganidek, ma'naviyat boshqa sohalaridan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak va bu o'rinda biz bir maqsad yo'lida birlashmog'imiz shart. Davlatimiz rahbari ta'бири bilan aytganda, "Agar barchamiz birgalikda qat'iy harakat qilsak, jamiyatimizda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni mustahkamlashga albatta qodirmiz".

MUNOSABAT

MA'NAVYI YUKSALISH ZARURATI



Abdug'affor JO'RAYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Yig'ilishda bejiz aynan jadedlar mavzusiga murojaat qilinmadi. Chunki ularning ta'lim-tarbiyaga, ma'naviyatga oid g'oya-qarashlari bugun ham o'z ahamiyatini va dolzarbligini yo'qotmagan. Aynan jadedlar tashkil etgan yangi usul maktablari o'sha davrda zamonaviy ilmlarni o'rgatish, bolalarga milliy qadriyatlar ruhida ta'lim-tarbiya berishga qaratilgan edi.

Prezidentimiz topshirig'idan so'ng ma'naviyat sektorini tashkil etish va mazmun-mohiyatini joylarda aholiga keng targ'ib qilish maqsadida Surxondaryo viloyatida katta ishlar boshlab yuborildi. Viloyat ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida mazkur vazifani amalga oshirish, ma'naviyat sektorini tashkil etishda Surxondaryo tajribasini yo'lga qo'yish masalalari muhokama qilindi. Ma'naviyat sektorini tashkil etish bilan bog'liq masalalar hamda sektorning asosiy vazifalari yuzasidan ma'lumot berildi. Ma'naviyat sektori to'rtta sektorga qo'shimcha tarzda, alohida ijro hokimiyatining kollegial organi hamda viloyat, shahar va tumanlar kengashlarining ishchi tuzilmasi sifa-

tida tashkil etilishi, barcha hududlarda faoliyati yo'lga qo'yilishi ta'kidlandi. Bu borada qilinishi zarur bo'lgan vazifalar, chora-tadbirlar belgilab olindi.

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutining pedagogik jamoasi Termiz tumani mahallalariga birlashtirilgan. Oliyog'ning yetakchi professor-o'qituvchilari joylarda bo'lib, ma'naviyat sektori tuzilmasining mazmun-mohiyati, ahamiyati haqida tushuntirish ishlarni olib bormog'ida. Xususan, tuman-dagi 12-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda 3-umumta'lim maktabida ma'naviyat sektorini tashkil etish, uning faoliyatini namunalari yo'lga qo'yish yuzasidan o'quv-seminar o'tkazildi. Unda institut professor-o'qituvchilari ma'naviyat sektori tuzilmasining mazmun-mohiyati, asosiy vazifalari, ma'naviyat omilining jamiyat hayotidagi o'rni haqida so'z yuritdi.

Shuningdek, institut jamoasi Bandixon tumanidagi Limonzor mahallasida

qo'yilgan. Hududda ayni paytda "Obod xonadon — obod ko'cha — obod mahalla" mezonlari asosida mahalla idorasi, tibbiyot maskani tubdan ta'mirlanmog'ida. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti qurilayotir. Ichki yo'larga tosh yotqizilib, eskirgan elektr simyog'ochlari temir-beton ustunlarga almashirilmog'ida. Ichimlik va oqova suv masalalari hal etilib, yangi elektr uzatish tarmoqlari tortilyapti. Ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalar uy-joyini ta'mirlash, hududni obodonlashtirish ishlari ham uyushqoqlik bilan olib borilmog'ida. Qiyofasi tubdan o'zgarayotgan va limonchilikka ixtisoslashayotgan mahallada institut olimlari tashkil etgan seminar sohani yanada rivojlantirib, uni hududning "o'sish nuqtasi"ga aylantirishga xizmat qiladi.

Dastlab mahalladagi 37-maktabda institut katta o'qituvchilari va boshqalar issiqxonaga barpo etish, limon ko'chatlarini o'tqazish, parvarishlash va hosilni yig'ishtirib olungachaga bo'lgan jarayon haqida tushuncha berdi. Mahalla yoshlari nihollarni to'g'ri parvarishlash va mo'l hosil yetishtirishning zamonaviy usullari bilan tanishtirildi. Seminar professor-o'qituvchilar, talabalar va xo'jalik xodimlari ma'naviy muhitni yaxshilash chora-tadbirlari rejasini ishlab chiqish, muntazam ravishda sport musobaqalari, "Zakovat" intellektual o'yinlari, "Besh tashabbus" olimpiadasi doirasida turli tanlovlar, shoir-yozuvchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish masalalarini kelishib oldi.

Ma'naviyat ma'rifiy yo'nalishdagi bu kabi maslahatlashuvlar kelgusida samarasini berishi, qishloq yoshlarining turli musobaqalarda yuqori natijalarga erishishida asqatishi misollar asosida ta'kidlandi. Chunonchi, yaqinda surxondaryolik yoshlar o'rtasida o'tkazilgan "Breyn-ring" musobaqasida institut terma jamoasi 3-o'rinni egallab, sakkiz million so'm pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Yoshlarning ertangi kun egalari, davlat va jamiyatning munosib davomchilari bo'lib yetishishida pedagoglar hamda ota-onalarning mas'uliyati katta. Shu bois, rejalashtirayotgan har bir ishimizda mazkur omillar hisobga olinishi zarur.

NUQTAYI NAZAR

O'ZBEKISTONLIK DEGAN NOMGA MUNOSIBLIK MAS'ULIYATI

Bahodirjon SHERMUHAMMADOV,
pedagogika fanlari doktori,
professor



Insonga odamiylik sharafini bergan va uni ongsizlikdan ajratib turuvchi bir oliy sarhad borki, uning nomi ma'naviyatdir. Millatning taraqqiyoti, xalqning mafkuraviy qiyofasini aks ettiruvchi bu buyuk kuch yoshu qari, katta-yu kichikni yagona maqsad ostida birlashtirish qudratiga ega. Zero, yangi O'zbekistonni yaratish g'oyasi ham, Vatan va xalq birligiga ishonch ham ma'naviy ildizlardan kurtak otgani rost. Ma'naviyat bor ekan, inson va borliq haqiqatni o'z suratida, o'z ranglarida ko'ra oladi. Oftobni berkitib bo'lmagani kabi ma'naviy tafakkur ko'zguisini ham yashirib bo'lmaydi. Zulmatni bir parcha nur bilan nurafshon etuvchi, jaholatni chilparchin qiluvchi ma'naviyat turli kurashlarga yuz tutadi.

Jaholat ahli ma'naviyatni, ilm ziyosini singdimaydi, ezgulik qiyofasini aslo ko'ra olmaydi. Manfaatlarga to'qnashadi, bu to'qnashuvlar, kurashlar qadimdan bo'lgan, bugun ham davom etmog'ida. Lekin ertaga bo'lmagisi uchun biz javobgarmiz. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarimizning o'z egasi bor... Mana shu o'ylar, shu o'rtanishlar davlat yetakchisining fikr-u yodida, tun-u kun nigohida, har bir islohotida, yuritayotgan siyosatida mujassam.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ham shu qarashlar o'rtaga tashlandi, jiddiy va uyg'oq savollar qo'yildi, ma'naviyat ahli mulohazaga chorlandi. To'g'ri, mamlakatda ma'naviyat ma'rifiy, madaniy

hayot juda tez taraqqiy eta boshladi. Insonlarning maqsadi, umidi, ertangi rejalarini o'zgartirdi, kitobxonlik ko'ngiliga sig'a boshladi, yoshlar ilmga qaytdi. Iqtidor va iste'dod egalari o'z ustida ishonch bilan ishlay boshladi, teatrlar jonlandi. Ijod ahli balandparvoz qalamni tashlab, ko'ngil istagini yoza boshladi. Biroq milliy taraqqiyot ortidan tushib, qulay payt poylab kelayotgan yovuz kuchlar, mafkuraviy kurashlar ham tahdidlar



ko'rinishi, shakl-shamoyili, rang-tusini o'zgartirib, insoniyat ongi va shuurini egallash uchun fursat qotmog'ida.

Davlatimiz rahbari bu xavf-xatarlar qarshisida ham kuchli siyosiy tajriba va yetuk salohiyat bilan xalqimizga ochiq-oydin yo'l ko'rsatmog'ida. "Ma'naviyat boshqa sohalaridan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak", degan so'zlar mohiyati esa o'zini shu millatning bir bo'lqi deb bilgan, taqdirini shu el bilan bog'lay olgan, o'zbekistonlik degan nomga munosiblik mas'uliyatini his etayotgan har bir vatandoshimiz qalbiga kirib borgan jadidona xitob bo'ldi. Darhaqiqat, bugun ma'naviyat oldinda yurib, yo'limizni yoritmasa, ertaga kelajakning nigohi qorong'ida teran bo'lmaydi.

Yig'ilishda o'zbek tilini o'qitish samaradorligini oshirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Milliy sertifikatga ega o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchilariga kelgusi o'quv yilidan boshlab, 50 foiz ustama to'lanishi qayd etildi. Quvonarlisi, o'zbek tili bo'yicha endi mamlakatimizda xalqaro fan olimpiadasi tashkil etiladi. Bu oqilona qarorlar mohiyatida til targ'ibotchilarining qadriyatini yuksaltirish, pirovardida hozirgi tez o'zgarayotgan globalashuv davrida o'zbek tilining o'ziga xos baktakor xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, bugungi holati va istiqbolini asrash, ona tiliga ehtiroq orqali davlat yetakchisining fikr-u yodida, tun-u kun nigohida, har bir islohotida, yuritayotgan siyosatida mujassam.

Jaholatga undovchi kuchlar anglab turganidek, bugungi o'zbek xalqi kechagi xalq emas. Milliy yakdillik, birdamlik bilan yangi O'zbekistonni qurayotgan xalqning tafakkuri ham, mafkurasi ham endi yangicha. Farzandlarimiz ham milliy yakdillik, ma'naviy teranlik, o'zlikka sadoqat, dunyoga o'zbek bo'lib yuzlanish baxtini chiqur his etgan. Demakki, bu yo'ldan og'ishmaymiz va milliy qadriyatlar ruhi-da tarbiya topayotgan yetuk kadrlar bilan yakdillikda yangi O'zbekistonni barpo et-guvchi kuch bo'lamiz.

